



№ 01/455 «13» 06 2023

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligiga**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoniga muvofiq Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 2 maydagi 118-son buyrug‘iga asosan “2023-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati” tasdiqlandi. Unga muvofiq 2023-yilda 8 ta yo‘nalish bo‘yicha 313 ta xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar o‘tkazilishi va unda xorijdan 7000 ga yaqin olim, professor va ilmiy xodimlar ishtirok etishi Respublika miqyosida esa 8 ta yo‘nalish bo‘yicha 280 ta tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Mazkur rejaga muvofiq, O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi huzuridagi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi tomonidan joriy yilning 13-14 oktyabr kunlari Toshkent shahrida “Tibbiyot va sport: muammolar va istiqbollar” mavzusida halqaro ilmiy anjuman o‘tkazish belgilangan.

O‘z navbatida, Mazkur halqaro ilmiy anjumanda bevosita o‘zining anjuman mavzusiga oid ma’ruza yoki prezentatsiyasi bilan ishtirok etish istagi bo‘lgan mutaxassislar materiallarini, maqola yoki tezis matnini 2023 yilning 1-avgustiga qadar anjuman tashkiliy qo‘mitasiga taqdim etgan holda ishtirok etishlari mumkin.

Shu munosabat bilan, Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi tomonidan tashkil qilinayotgan halqaro ilmiy anjumanda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarning tegishli mutahassislarini faol ishtirokini ta’minlashda amaliy yordam ko‘rsatishingizni so‘raymiz.

Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi tomonidan tashkil qilinayotgan halqaro ilmiy anjuman togrisida tegishli malumotlar ilova qilinadi.

Ilova 3 varaq

Bosh kotib

O.Kasimov



O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi huzuridagi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi“ tomonidan tashkil qilinayotgan
“Tibbiyot va sport: muammolar va istiqbollar” mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman yuzasidan
AXBOROT XATI



Qadrli hamkasblar!

Sizni 2023 yil 13-14-oktyabr kunlari Toshkent shahridagi **“Inter Continental Tashkent”** mehmonxonasining anjumanlar zalida bo‘lib o‘tadigan **“Tibbiyot va sport: muammolar va istiqbollar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etishga taklif qilamiz.

Ushbu konferensiya sportchilarni tibbiy-biologik ta'minlash va sportchilarning funktsional diagnostikasi, nutritionologiya va farmakologiya, shuningdek, sport tibbiyotining boshqa ko'plab muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan.

Anjuman kun tartibidan yalpi va seksiya majlislari hamda mahorat darslari o‘rin olgan. Mazkur anjuman doirasida xalqaro mutaxassislar ishtirokida mahorat darslari ham o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Anjumanning asosiy yo‘nalishlari:

- Sport tibbiyotida innovatsion texnologiyalar;
- Sportni tibbiy-biologik ta'minlashning dolzarb masalalari;
- Sport psixologiyasi va psixokorreksiya;
- Sport farmakologiyasi;
- Sport dietologiyasi;
- Sport genetikasi;
- Funktsional diagnostika;
- Tibbiy rehabilitatsiya;
- Travmatologiya va ortopediya;
- Shoshilinch tibbiy yordam.

Anjuman yakunida ishtirokchilarga **sertifikat** beriladi.

Shuningdek, Mazkur halqaro ilmiy anjumanda bevosita o'zining anjuman mavzusiga oid ma'ruza yoki taqdimotlari bilan ishtirok etish istagi bo'lgan mutaxassislar materiallarini, maqola yoki tezis matnini 2023 yilning 1-sentyabrga qadar, ma'ruza (taqdimot) materiallarini esa 2023 yil 1-avgustgacha anjuman tashkiliy qo'mitasiga yuborishingizni so'raymiz.

Anjumanda ishtirok etish shakllari:

Tezislarni, maqolalarni nashr etish;

Ma'ruza-taqdimot;

Anjumanda ishtirok etish

Anjuman materiallari: Anjuman materiallari maqola (kelishuv bo'yicha) va tezislarni shaklida "TIBBIYOT VA SPORT" ilmiy-amaliy jurnalida chop etiladi.

Tezis materiallarini tayyorlashga qo'yiladigan talablarni quyidagi havola orqali ko'rishingiz mumkin: <https://conference.sportmed.uz/uz/rules/>

Anjuman haqida ma'lumotni quyidagi havola orqali ko'rishingiz mumkin: <http://conference.sportmed.uz>

Tashkiliy qo'mita manzili: Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi: Toshkent sh., Shayxontohur tumani. Olmazor, 6 uy <https://sportmed.uz/>

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun – Usmonalieva Nafisa Shamsutdinovna

Telefon: +99890 3242452;

Email: sportmedscience.uz@gmail.com

hurmat bilan,

Anjuman tashkiliy qo'mitasi

**O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi huzuridagi Respublika sport tibbiyoti
ilmiy-amaliy markazi“ tomonidan tashkil qilinayotgan “Tibbiyot va sport:
muammolar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda
_____ (vazirlik idora va tashkilot) dan
ishtirok etadigan mutaxassislar
RO‘YXATI**

№	F.I.Sh.	Pasport,ID berilgan vaqti va raqami	Egallab turgan lavozimi	Ma'lumoti va mutaxassisligi	Telefon raqami
1					
2					